Korxona yoshlari uchun “Bir million dasturchi” loyihasi asosida o‘quv kursi tashkil etildi

// 02 May 2024 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korxona-yoshlari-uchun-bir-million-dasturchi-loyihasi-asosid



“Qo‘ng‘irot soda zavodi”da yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan xayrli tashabbuslar davom etmoqda.

Xususan, ayni kunlarda IT-parkning Qo‘ng‘irot tumani filiali bilan hamkorlikda ishchi yoshlar uchun “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 3-kunlik o‘quv kurslari tashkil etildi.



Mashg‘ulotlardan ko‘zlangan maqsad- yoshlarni IT sohasiga qiziqtirish va yo‘naltirishdan iborat.

O‘quv kursida axborot texnologiyasi sohasining bugungi kunda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida batafsil ma’lumotlar berib borilyapti. Yoshlarni qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob olish imkoniyati yaratilmoqda.

Mashg‘ulotlar davom etmoqda.



"Qo‘ng‘irot soda zavodi" MCHJ QK matbuot xizmati